



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025-yil yanvar-fevral oylari
uchun dastlabki ma'lumot

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi:*
74 228-30-37



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2025-yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 602,5 mln. AQSh dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 111,2 mln. AQSh dollariga yoki 15,6 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2025- y.: **602,5** (-15,6 %)

(2024- y.: **713,7**)



Saldo

2025- y.: **-303,6** (2024- y.: **-430,5**)



Eksport

2025- y.: **149,5** (5,5 %)

(2024- y.: **141,6**)

TSA dagi ulushi

75,2 %


24,8 %



Import

2025- y.: **453,0** (-20,8 %)

(2024- y.: **572,1**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi 149,5 mln. AQSh dollariga (5,5 % ga oshdi) va import hajmi 453,0 mln. AQSh dollariga (20,8 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 303,5 mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2025-yil yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)

XXR TSA – 170,5 Eksport: 5,4 Import: 165,1  28,3 %	Koreya Respublikasi TSA – 138,8 Eksport: 0,4 Import: 138,4  23,0 %	Rossiya TSA – 83,4 Eksport: 36,8 Import: 46,6  13,8 %	Qozog‘iston TSA – 53,5 Eksport: 51,0 Import: 2,5  8,9 %	Braziliya TSA – 26,9 Eksport: 0,0 Import: 26,9  4,5 %
Qirg‘iz Respublikasi TSA – 23,2 Eksport: 15,8 Import: 7,4  3,8 %	Afg‘oniston TSA – 17,1 Eksport: 17,1 Import: 0,0  2,8 %	Hindiston TSA – 11,2 Eksport: 4,9 Import: 6,3  1,9 %	Meksika TSA – 9,8 Eksport: - Import: 9,8  1,6 %	Slovakiya TSA – 8,6 Eksport: 0,0 Import: 8,6  1,4 %

Andijon viloyati jahonning 72 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (28,3 %), Koreya Respublikasida (23,0 %), Rossiya Federatsiyasida (13,8 %), Braziliyada (4,5 %), Qirg‘iz Respublikasida (3,8 %) va Afg‘onistonda (1,9 %) qayd etilgan.



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
XXR	164,7	231,4	170,5

Eksport

16,2

17,7

5,4

Import

148,4

213,7

165,1



Koreya Respublikasi

188,6

174,6

138,8

Eksport

0,0

0,1

0,3

Import

188,6

174,6

138,4



Rossiya

48,8

83,8

83,4

Eksport

30,9

37,4

36,8

Import

17,9

46,3

46,6



Qozog'iston

51,2

52,8

53,5

Eksport

49,9

51,5

51,0

Import

1,4

1,2

2,5



Braziliya

40,9

29,4

26,9

Eksport

0,1

0,0

0,0

Import

40,8

29,4

26,9



Qirg'iz Respublikasi

64,4

15,1

23,1

Eksport

60,5

11,4

15,8

Import

3,9

3,6

7,4



Afg'oniston

0,1

11,0

17,1

Eksport

0,1

10,9

17,1

Import

0,0

0,0

0,0



Hindiston

7,3

3,8

11,2

Eksport

0,0

0,3

4,9

Import

7,3

3,5

6,3



AQSH

16,8

28,8

10,4

Eksport

0,1

0,3

1,0

Import

16,7

28,5

9,4



Meksika

32,9

36,8

9,8

Eksport

32,9

36,8

9,8

Import

-


-

-

	Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
	Slovakiya	3,3	4,7	8,6
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	3,3	4,7	8,6
	Belarus Respublikasi	1,5	7,4	6,9
	<i>Eksport</i>	0,1	6,9	6,3
	<i>Import</i>	1,4	0,5	0,6
	Turkiya	18,9	7,9	6,0
	<i>Eksport</i>	5,3	1,7	1,3
	<i>Import</i>	13,5	6,2	4,7
	Tayland	2,5	1,9	3,8
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	2,5	1,9	3,8
	Vetnam	0,3	2,2	3,7
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,3	2,2	3,7
	Ozarbayjon	4,4	0,9	3,2
	<i>Eksport</i>	4,4	0,8	3,1
	<i>Import</i>	0,0	0,1	0,1
	Germaniya	6,2	2,1	3,1
	<i>Eksport</i>	0,2	0,0	0,1
	<i>Import</i>	6,0	2,1	3,0
	Polsha	2,0	2,7	2,4
	<i>Eksport</i>	0,3	0,2	0,2
	<i>Import</i>	1,8	2,6	2,2
	Pokiston	0,1	2,6	2,0
	<i>Eksport</i>	0,1	0,4	1,5
	<i>Import</i>	0,0	2,1	0,5
	Chexiya	4,6	2,1	1,7
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	4,6	2,1	1,7



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2025-yil yanvar-fevral, mln AQSH doll.)




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 59,8 % ulush bilan 306,4 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'ston tumani 0,3 % ulush bilan 1,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2025-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 28,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga oshdi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2025-yilning yanvar-fevral oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 71,2 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, 173,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 115,9 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 57,5 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2025-yil yanvar-fevral, ulushi, % da)

Rossiya – 48,1



Qozog'iston – 30,8



Qirg'iz
Respublikasi – 13,3



Belarus – 4,0



Ozarbajjon – 1,8



Ukraina – 0,9



Moldova – 0,6



Turkmaniston – 0,2



Tojikiston – 0,2




Armaniston – 0,1



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushi, Rossiya Federatsiyasi (48,1 %), Qozog'iston (30,8 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (13,3 %) bilan qayd etildi.

ANDIJON VILOYATINING YEOIIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-fevral, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 167,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 109,9 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 57,1 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni 232 taga yetdi va ular tomonidan 149,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2024-yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga oshdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025-yil yanvar-fevral)



4,3 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,2 %

2. Ichimliklar va tamaki



0,5 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



10,8 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,3 %

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



1,7 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



15,8 %

7. Sanoat tovarlari



34,8 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunolari



25,8 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



5,9 %

10. Xizmatlar



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami eksport	141,6	149,4	81,4	105,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,4	6,4	117,0	186,7	2,4	4,3
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,3	47,1	85,2	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,3	0,7	20,1	255,7	0,2	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,5	16,1	9 178,9	153,6	7,4	10,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,4	-	-	0,0	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,2	2,5	84,0	205,5	0,9	1,7
Sanoat tovarlari	38,6	23,6	79,3	61,3	27,2	15,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	45,4	52,1	83,7	114,7	32,1	34,8
Turli xil tayyor buyumlar	40,6	38,5	64,9	94,8	28,7	25,8
Xizmatlar	1,3	8,8	70,9	679,6	0,9	5,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 94,1 % ni tashkil etib, ular turli xil tayyor buyumlar (25,8 %), sanoat tovarlari (15,8 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (10,8 %), mashinalar va transport asbob uskunalari (34,8 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar-fevral)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	5 385,5	163,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	125,3	-
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	342,6	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	428,6	4,3 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	256,6	85,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	489,0	3,5 m.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	116,3	167,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	131,2	186,7
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo	11,5	77,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	16 070,8	153,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	409,7	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	193,9	2,7 m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	45,7	120,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	101,5	2,9 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	5,1	9,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2 140,5	2,1 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	58,2	132,3


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2024-yilning mos davriga nisba-tan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	20 624,8	56,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 238,3	5,5 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	922,8	130,6
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	420,5	107,6
Rangli metallar	293,2	4,3 m.
Cho'yan va po'lat	51,5	14,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	44,2	167,5
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	9,9	6,0 m.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	25,7	26,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	32 931,5	108,5
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	17 035,4	140,7
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	1 110,9	97,7
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	137,4	100,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	346,7	22,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	321,9	9,0 m.
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	37 222,5	94,3
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	570,3	4,2 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	317,5	78,7
Poyabzal	275,3	69,3
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	66,2	98,8
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	40,8	42,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,8	25,6
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	1,1	116,5

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga 115,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportdagi ulushi 77,5 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



■ MDH davlatlari

■ Boshqa davlatlar



2025-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, XRR, Qirg'iz Respublikasi, Ozarbayjon va Belarus kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 91,9 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025-yil yanvar-fevral, % da)






ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-fevral, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rn	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Qozog'iston	51,5	51,0	103,3	99,0	1	1
Rossiya Federatsiyasi	37,4	36,8	121,0	98,3	2	2
Afg'oniston	10,9	17,1	77,3 m.	156,4	4	3
Qirg'iziston	11,4	15,8	18,9	138,2	6	4
Belarus	6,9	6,3	63,8 m.	90,9	3	5
Xitoy	17,7	5,4	109,1	30,3	5	6
Xindiston	0,3	4,9	1 878,8 m.	17,3 m.	8	7
Ozarbayjon	0,8	3,1	19,0	3,7 m.	11	8
Ukraina	0,7	1,6	126,0	2,1 m.	7	9
Pokiston	0,4	1,5	305,6	3,7 m.	9	10
Turkiya	1,7	1,3	31,5	76,0	14	11
AQSH	0,3	1,0	2,7 m.	3,3 m.	10	12
Moldova Respublikasi	0,3	1,0	138,5	3,7 m.	12	13
Tojikiston	0,5	0,4	27,9	73,6	13	14
Koreya Respublikasi	0,06	0,3	36,7 m.	548,2	19	15
Birlashgan Arab Amirliklari	0,02	0,3	-	16,9 m.	15	16
Ispaniya	0,0	0,3	0,0	-	16	17
Litva	0,0	0,2	0,0	-	17	18
Polsha	0,2	0,2	59,3	103,2	18	19
Angola	0,0	0,2	-	-	20	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2025-yil yanvar-fevral, mln AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 38,7 % bilan 57,9 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Xonobod sh. 0,1 % bilan 0,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025-yil yanvar-fevral oylarida 12,3 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,7 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (51,5 %), Rossiya Federatsiyasi (22,4 %), XXR (16,0 %), Belarus (1,8 %) hamda BAA (1,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2025-yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi 3,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,2 martaga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2025-yil yanvar-fevral, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum 0,6 mln AQSH dollari 0,7 ming tonna  7,8 m. ↑	Karam 0,5 mln AQSH dollari 1,7 ming tonna  26,3 % ↑	Bodring 0,1 mln AQSH dollari 0,1 ming tonna  -64,1 % ↓	Pomidor 0,1 mln AQSH dollari 0,1 ming tonna  35,6 % ↑
Sabzi 1,0 mln AQSH dollari 4,9 ming tonna  8,3 % ↑	Piyoz 0,2 mln AQSH dollari 0,4 ming tonna  62,4 % ↑	Yeryong'oc 0,1 mln AQSH dollari 0,1 ming tonna  86,7 % ↑	Qovun va tarvuz 0,04 mln AQSH dollari 0,2 ming tonna  3,7 m. ↑



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2025-yil yanvar-fevral)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	9,3	3,0	51,5
 Rossiya Federatsiyasi	1,2	1,3	22,4
 XXR	1,3	0,9	16,0
 Belarus	0,1	0,1	1,8
 BAA	0,03	0,1	1,4
 Polsha	0,02	0,1	1,0
 Qozog'iston	0,05	0,02	0,3
 Ukraina	0,02	0,01	0,2
 AQSH	0,003	0,01	0,2
 Mongoliya	0,02	0,01	0,2
 Afg'oniston	0,0	0,0	0,0
 Latviya	0,0	0,0	0,0
 Turkiya	0,0	0,0	0,0
 Pokiston	0,0	0,0	0,0
 Saudiya Arabistoni	0,0	0,0	0,0

* qiymat ifodasidan



2025-yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 51,5 %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 2,3 barobar ko'p.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2025-yil yanvar-fevral oylarida yakuni bo'yicha 29,5 mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 51,0 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 16,3 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (65,5 %), ip kalava (22,1), trikotaj mato (11,3 %) asosiy ulushni egallagan.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln AQSh dollari)




29,5 (2024 y.: 32,5)

Jami



19,3 (20,2)

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari



6,5 (10,7)

Ip kalava



3,3 (4,2)

Trikotaj mato



0,3 (0,03)

Ipak va ipak mahsulotlari




0,01 (0,1)

Gazlamalar

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar-fevral, mln AQSH doll.)



 Xizmatlar eksporti hajmi 8,8 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 5,9 % ini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,8 marta ga oshdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (8,8 %), safarlar (turizm) (77,8 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (5,3 %) va transport xizmatlar (8,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



ANDIJON VILOYATINING IMPORTI



2025-yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 453,0 mln. AQSh dollarini va 2024-yilning mos davriga nisbatan 20,8 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (55,0 %), sanoat tovarlari (22,0 %) hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (10,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-fevral)



1,7 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari
va tirik hayvonlar



0,0 %

2. Ichimliklar
va tamaki



0,6 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo,
yoqilg'idan tashqari



10,1 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash
moylari va shunga
o'xshash materiallar



0,1 %

5. Hayvon va o'simliklar
moylari (yog'lari),
yog'lar va mumlar



6,6 %

6. Kimyoviy vositalar
va shunga o'xshash
mahsulotlar



22,0 %

7. Sanoat tovarlari



55,0 %

8. Mashinalar
va transport asbob-
uskunolari



3,6 %

9. Turli xil tayyor
buyumlar



0,2 %

11. Xizmatlar



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,6 mln. AQSh dollariga kamaydi va 452,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,0 mln. AQSh dollariga yetdi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-fevral, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami import	572,1	453,0	112,5	79,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,8	7,7	2,4 m.	133,2	1,0	1,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	-	27,9	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,2	2,7	84,7	123,6	0,4	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	39,8	45,9	11,4 m.	115,6	6,9	10,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,4	13,6	2,4 m.	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	36,4	29,9	77,7	82,1	6,4	6,6
Sanoat tovarlari	107,9	99,8	108,1	92,5	18,9	22,0
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	350,5	249,3	105,7	71,1	61,3	55,0
Turli xil tayyor buyumlar	21,0	16,4	135,9	78,2	3,7	3,6
Xizmatlar	8,5	1,0	162,4	11,7	1,5	0,2



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar-fevral)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2024-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	2 540,6	3,8 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 469,8	136,1
Sabzavotlar va mevalar	682,3	47,1
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	423,8	3,0 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	554,9	76,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	280,3	44,4
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	133,3	69,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	597,1	4,2 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	13,3	27,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	557,0	105,5
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	66,1	11,1 m.
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina ham)	822,0	124,6
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	761,3	163,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari	175,7	37,3
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	238,4	6,6 m.
Metall rudalari va metall parchalari	0,0	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	39 173,7	109,1
Ko'mir, koks va briketlar	5 264,0	2,4 m.
Tabiiy yoki sun'iy gaz	1 509,1	90,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	361,0	2,5 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	8 175,7	62,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	7 819,5	105,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	6 057,4	96,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	2 464,8	59,5
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 407,3	79,6
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	2 088,0	127,3

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2024-yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	46 239,6	93,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	20 725,2	84,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	22 153,2	103,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	6 412,2	75,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 730,6	71,8
Rangli metallar	1 687,4	171,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi	504,3	3,2 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	244,2	129,3
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	107,1	44,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	151 713,2	63,8
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	30 750,9	83,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	23 857,5	97,4
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	19 601,5	72,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	11 625,0	99,9
Metallarni qayta ishlash mashinalari	3 137,9	59,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	7 680,7	127,6
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	275,4	28,2
Turli xil tayyor buyumlar		
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	6 000,5	94,8
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	5 206,6	58,2
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3 014,1	92,3
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 601,9	85,8
Poyabzal	206,5	73,0
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	132,4	142,1
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	196,3	131,6
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	41,8	120,9



2025-yil yanvar-fevral natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi 57,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,7 % ga oshdi


MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2025-yil yanvar-fevral oylarida Andijon viloyati 50 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Meksika, Braziliya, AQSh va Slovakiya) jami importning 10 dan 9 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025-yil yanvar-fevral, % da)






ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

Davlatlar	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Xitoy	213,7	165,1	144,0	77,3	1	1
Koreya Respublikasi	174,6	138,4	92,6	79,3	2	2
Rossiya Federatsiyasi	46,3	46,6	2,6 m.	100,7	3	3
Braziliya	29,4	26,9	71,9	91,6	5	4
Meksika	36,8	9,8	111,7	26,7	4	5
AQSH	28,5	9,4	170,6	32,9	6	6
Slovakiya	4,7	8,6	142,6	181,9	8	7
Qirg'iziston	3,6	7,4	92,5	2,0 m.	9	8
Xindiston	3,5	6,3	48,5	179,6	10	9
Turkiya	6,2	4,7	45,7	75,8	7	10
Tailand	1,9	3,8	74,5	202,3	16	11
Vetnam	2,2	3,7	8,3 m.	170,4	12	12
Germaniya	2,1	3,0	34,6	142,3	13	13
Qozog'iston	1,2	2,5	89,8	199,2	18	14
Malayziya	1,3	2,3	9,1 m.	180,0	17	15
Polsha	2,6	2,2	145,1	85,0	11	16
Chexiya	2,1	1,7	45,2	83,4	14	17
Vengriya	0,0	1,4	9,9	61,8 m.	20	18
Eron Islom Respublikasi	1,9	1,3	112,3	65,1	15	19
Portugaliya	0,7	1,0	82,3	134,7	19	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2025-yil yanvar-fevral, mln AQSH doll.)



2025- y.


2024- y.

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 66,8 % bilan 302,6 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'ston tumani 0,04 % bilan 0,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2025-yil yanvar-fevral, mln AQSH dollarida)




2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1,0 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 88,3 % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Telekomunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (14,1 %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (17,7 %) ga tegishli bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2025-yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 99,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,5 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 22,0 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2025-yil yanvar-fevral, ulushi, % da)

59,5 mln AQSH doll.
Ulushi – 59,6 %



XXR

17,9 mln AQSH doll.
Ulushi – 18,0 %



**Koreya
Respublikasi**

6,2 mln AQSH doll.
Ulushi – 6,2 %



Slovakiya

4,7 mln AQSH doll.
Ulushi – 4,8 %



Braziliya

2,9 mln AQSH doll.
Ulushi – 2,9 %



Meksika



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (46,3 mln. AQSh dollari), rezina buyunlari (22,2 mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (20,8 mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,4 mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.